



INNOVATIVE DEVELOPMENT OF NATIONAL TOURISM AND STRENGTHENING ITS POSITION IN THE WORLD MARKET

Norbekov Khursandmurod Uktam ugli

Assistant of the Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.

ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА И УКРЕПЛЕНИЕ ЕГО ПОЗИЦИЙ НА МИРОВОМ РЫНКЕ

Норбеков Хурсандмuroд Уктам оглы

Ассистент Джизакского филиала Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

MILLIY TURIZMNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH VA UNING JAHON BOZORIDAGI MAVQEINI MUSTAHKAMLASH

Norbekov Xursandmurod O'ktam o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetining Jizzax filiali assistenti.

abstract

The article discusses the issues of assessing the potential of tourism in the context of innovative development, the quality of service in the context of changing trends in the field of tourism, and studying the mechanism for assessing the development of tourism activities in tourism. Attention is drawn to the criteria for the balanced development of innovation activity in tourism and a possible mechanism for assessing the balanced development of tourism is described.

аннотация

В этой статье рассматриваются вопросы оценки потенциала туризма в условиях инновационного развития, качества обслуживания в условиях меняющихся тенденций в сфере туризма, изучается механизм оценки развития туристической деятельности в туризме. Обращено внимание на критерии сбалансированного развития инновационной деятельности в туризме и описан возможный механизм оценки сбалансированного развития туризма.

annotatsiya

Ushbu maqolada turizmning innovatsion rivojlanishi sharoitida sodir bo'layotgan o'zgarishlarning turizm salohiyatiga ta'siri, sifatli

xizmat ko'rsatish negizida baholash masalalari ko'ringan bo'lib, turizmga turistik faoliyatni baholash mexanizmi o'rganilgan. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida turizm sohalarining innovatsion o'ziga xos xususiyatlari asosida turizmning maqbul rivojlanishiga e'tibor qaratilgan.

Keywords:

innovation development, modernization of the economy, quality service, tourism, tourism marketing, evaluation processes, tourism activities, evaluation mechanisms, tourism sagas, optimal development of tourism.

Ключевые слова:

инновационное развитие, модернизация экономики, качественный сервис, туризм, туристический маркетинг, процессы оценки, туристическая деятельность, механизмы оценки, туристические саги, оптимальное развитие туризма.

Kalit so'zlar:

innovatsion rivojlanish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, sifatli xizmat, turizm, turizm salohiyati, baholash jarayonlari, turistik faoliyat, baholash mexanizmi, turizm sohalar, turizmning maqbul rivojlanishi.

© 2023 Norbekov Khursandmurod Uktam ugli.

Kirish

Milliy turizmni innovatsion rivojlantirish va uning jahon bozoridagi pozitsiyasini mustahkamlab borish, ko'ha tariximiz va boy madaniy merosimiz, mintaqalarning o'ziga xos xususiyatlariga asoslangan holda turizm sohasini jadal rivojlantirish, mintaqalarni muayyan tarixiy-turistik belgilar asosida rayonlashtirish kabi masalalarga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish dolzarb hisoblanadi. Mamlakatimizda keyingi yillarda turizm industriyasini sifat va miqdor jihatdan yangi pog'onaga ko'tarish yuzasidan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Sohaning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining boshqa tarmoqlar bilan multiplikativ ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ifodalaydi, hamda barcha makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlariga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish vazifalari dolzarbligini belgilaydi. Belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish mamlakat milliy iqtisodiyotining raqobatbardoshligini kuchaytirishga ko'maklashadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Respublikamiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida turizm industriyasini rivojlanishi va takomillashishining asosiy yo'nalishlari, shuningdek, mavjud bozoplak imkoniyatlapidan foydalanishni yanada yaxshilash yo'llari va kengaytirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, u ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa faoliyat sohalariga ta'sir qiladi. O'zbekiston sharoitida turizm sohalarining innovatsion o'ziga xos xususiyatlari asosida turizmning maqbul rivojlanishi va ular bozorini tashkil qilish masalalarining ma'lum bir tomonlari olimlardan N.Tuxliev, D.X.Asanova, B.Sh.Safarov, M.T.Alimova, A.A.Eshtaev va boshqalar ishlarida ko'rilgan. Ammo innovatsion rivojlanish sharoitida turizm salohiyatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi va samarali ishlashini ta'min etish ilmiy ishlarda o'rganilmagan va bu muammoni o'rganishga e'tiborning qaratilishi shu kun talablaridan kelib chiqadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolaning metodologiyasi ilmiy va tobora ommalashib borayotgan manbalarni tahlil qilishdan boshlab, milliy iqtisodiyotimizga kiritilgan investitsiyalar, jumladan, turizm industriyasini rivojlantirish va uning salohiyatidan foydalanish mexanizmlari ahamiyati va rolini tahlil qiladi.

Innovatsion rivojlanish sharoitida turizm salohiyatidan foydalanish jarayonlarini tahlil qilish usullari, turizmni rivojlantirish bo'yicha ishchi dasturlar va qo'llanmalar, zamonaviy veb-vositalardan investitsiya samaradorligini oshirish vositalaridan biri sifatida foydalanish bo'yicha iqtisodiy tajribani umumlashtirish,

ushbu tadqiqot muammosi bo'yicha investorlar bilan suhbatlar usullari ham qo'llanildi. Shundan kelib chiqqan holda, maqoladagi asosiy g'oyalar va natijalar turizm industriyasini rivojlantirish faoliyatini yaxshilash va takomillashtirishga qaratilgan yo'llanmalarni ishlab chiqishda uslubiy asos hisoblanib, muallifning tavsiyalari turizm bozorini takomillashtirishga yetkazish bo'yicha nazariy va amaliy qo'llanma sifatida foydalanilishi mumkin.

Tahlil va natijalar

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashda turizm sohasi iqtisodiyotning yuqori daromadli sektori hisoblanib, jahon tovarlar va xizmatlar bozorining jadallashishiga, aholining ish bilan bandligini ta'minlashga, jahonning turli davlatlari va mintaqalari o'rtasidagi uzviy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Globallashuv jarayoni tobora chuqurlashib, xalqaro madaniy aloqalarning kengayib borishi sharoitida turizm industriyasi jahonda jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Jahon sayyohlik tashkiloti (JST) ma'lumotlariga ko'ra, "jahon tovarlar va xizmatlar eksportida turizm to'rtinchi o'rinni, daromadlilik bo'yicha esa uchinchi o'rinni egallaydi. 2020-yil uning jahon YaIMdagi ulushi 11,3% (8,8 trln.\$) ni tashkil qildi"¹. Bugungi kunda turizm bo'yicha iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etishda innovatsion texnologiyalarni yaratish va joriy etish innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning muhim shartlaridan biri bo'lib qolmoqda.

"Hozirgi vaqtda xalqaro amaliyotda Sayohatlar va turizm statistikasi bo'yicha xalqaro konferensiyada (Ottava, 1991 y.) ishlab chiqilgan hamda JST va BMT Statistika komissiyasi tomonidan ma'qullangan ta'rif keng qo'llanadi. Ushbu ta'rifga muvofiq, sayyoh – bu tashrif buyuruvchi, ya'ni o'zining odatiy muhitidan tashqarida joylashgan makonlarga, o'sha joydagi manbalardan haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanishdan tashqari, istalgan maqsadlarda 12 oydan ortiq bo'lmagan muddat davomida sayohat qiluvchi va o'sha yerda bo'lib turuvchi shaxsdir"².

Turizmning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat:

1. Makonning odatiy yashash joyi chegarasidan tashqarida o'zgarishi.
2. Kishilarning yetarlicha qisqa vaqt oralig'ida ko'chib yurishi. Statistika bo'yicha dam olish kuni turizmi (2-3 kun) eng katta ulushni egallaydi, undan keyingi o'rinda turistik safarlar (6-7 kun) turadi, eng kam ulush 8-12 kunlik safarlar hissasiga to'g'ri keladi.
3. Tashrif buyurilgan joy doimiy yoki uzoq muddatli yashash joyi bo'lmashligi kerak.

¹ <http://www.unwto.org>

² Александрова А.Ю. География туризма. М.: Аспект Пресс, 2002. – С. 6-7.

4. Safarning bosh maqsadi tashrif buyurilayotgan joydagi manbadan haq to'lanadigan faoliyatni amalga oshirish bo'lmashligi kerak.

Nisbatan past daromadli mamlakatlar va mintaqalarga sayyohlar oqimining jadal o'sib borayotgani turizm industriyasi global darajada rivojlanayotganining muhim xususiyatidir. Bu esa, asosan, mehnat xarajatlari kam bo'lgan bunday mamlakatlar va mintaqalarda turistik xizmatlarning ancha arzonligi, aksariyat hollarda rivojlanayotgan mamlakatlarning ilgari foydalanilmagan yoki sust foydalanilgan sayyohlik resurslarining turizm industriyasiga jalb etilishi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, ayrim mamlakatlarda bozor kon'yunkturasi, shuningdek, mintaqaviy iqtisodiy siyosat dastaklari ta'siri ostida kengayib borayotgan turistlar oqimi muammoli – qoloq yoki turg'unlikda qolgan mintaqalarga yo'naltirilishi mumkin bo'lib, ushbu holat ularni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Mamlakatda turizm sohasini muvaffaqiyatli rivojlantirishning eng muhim sharti zaruriy me'yoriy-huquqiy asoslarni shakllantirish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida qo'llanayotgan turizm turlari ro'yxatini kengaytirish bo'yicha faol chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida an'anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan bir qatorda turizmning ziyorat, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish, qishloq xo'jaligi, sanoat, ishbilarmonlik kabi boshqa salohiyatli turlarini jadal rivojlantirish ko'zda tutilgan³.

O'rta muddatli istiqbolda turizm sohasidagi davlat siyosatining bosh maqsadli vazifalari va ustuvorliklari quyidagilardir: yaxlit turizmni rivojlantirish konsepsiyasini shakllantirish va izchil amalga oshirish turizmga iqtisodiyotning strategik tarmog'i maqomini berish, ushbu tarmoqni iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, tarkibiy qayta o'zgarish va diversifikatsiyalash, barcha mintaqalar va tutash tarmoqlarni jadal kompleks rivojlantirishda lokomotiv bo'lib xizmat qiladigan qudratli vositaga aylantirish, yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotda, mahalliy budjetlar daromadida turizmning hissasini ko'paytirish, bandlikni ta'minlash, aholi turmush darajasi va sifatini yuksaltirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish⁴.

So'nggi yillarda turizm tarmog'ining moddiy-texnika bazasi, infratuzilmasi sezilarli mustahkamlandi. 2021-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda 615 ta mehmonxona va unga o'xshash joylashtirish vositalari mavjud edi. Ularning bir vaqtning o'zida

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 2 декабрдаги "Ўзбекистон Республикаси туризм соҳасини жадал ривожлантиришини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-4861-сонли фармони// Ўзбекистон Республикаси қонунчилик ҳужжатлари тўплами, 2016, № 49, 558-б, 2017 № 1, 3-б.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 2 декабрдаги "Ўзбекистон Республикаси туризм соҳасини жадал ривожлантиришини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-4861-сонли фармони// Ўзбекистон Республикаси қонунчилик ҳужжатлари тўплами, 2016, № 49, 558-б, 2017 № 1, 3-б.

qabul qilish sig'imi 17779 ta nomer (xona) va 34898 ta yotoq o'rnini tashkil qiladi. Bu boradagi eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahri (19,8%), Samarqand (16,4%) va Buxoro (15,4%) viloyatlari, eng kam esa Jizzax (2,8%), Namangan (2,8%) va Sirdaryo viloyatlari (1,6%) hissasiga to'g'ri keladi. 2015 yilga nisbatan 2020 yil boshida mehmonxonalar va muqobil joylashtirish vositalari soni 1224 birlikka va 42745 yotoq o'rniga yetdi. 2020 yil natijalariga ko'ra, joylashtirish vositalarining eng ko'pi Toshkent shahriga (20,5%), Buxoro (17,1%) va Samarqand (14,5%) viloyatlariga, eng kam Sirdaryo (1,5%), Andijon (3,1%) va Namangan (3,2%) viloyatlariga to'g'ri keladi.

Respublikaning turizm salohiyatini baholash muayyan mintaq va butun mamlakat miqyosida turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Turizm salohiyatini aniqlashning to'g'riligi tanlab olingan mazkur tarmoqni rivojlantirish omillarining muhimligiga va statistik ma'lumotlarning ishonchligiga bevosita bog'liq. Turizm salohiyati darajasi bo'yicha yetakchi mintaqalarga Toshkent shahri, Samarqand, Toshkent viloyatlari kiradi. Eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida qayd etilganiga qaramay, nazarimizda ushbu mintaqalarda agroetnografik turizmni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Bugungi kunda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, shu jumladan, turizm sohasida ham faol hududiy siljishlarga qaramay, O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda quyidagi qator muammolar va ishlatilmagan imkoniyatlar mavjud:

Jadval

O'zbekiston mintaqalarining turizm infratuzilmasi salohiyati⁵

Mintaqalar	Mintaqalar bo'yicha sayyohlik firmalari va tashkilotlarining soni	Mintaqalar bo'yicha mehmonxona va muqobil joylashtirish vositalari o'rinlari soni	Mintaqalar bo'yicha sanatoriy-kurort muassasalari o'rinlari soni	Mintaqaning turizm salohiyati
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,017	0,135	0,168	0,073
Andijon	0,010	0,076	0,170	0,050
Buxoro	0,062	0,250	0,091	0,112
Jizzax	0,007	0,055	0,159	0,039
Qashqadaryo	0,014	0,120	0,214	0,071

⁵ Давстатқўмитанинг "2019 йилда Ўзбекистонда туризм" маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Navoiy	0,010	0,111	0,139	0,054
Namangan	0,003	0,098	0,544	0,054
Samarqand	0,178	0,418	0,352	0,297
Surxondaryo	0,014	0,124	0,158	0,065
Sirdaryo	0,003	0,016	0,002	0,005
Toshkent	0,017	0,238	0,942	0,156
Farg'ona	0,014	0,147	1	0,127
Xorazm	0,014	0,189	0,086	0,061
Toshkent sh.	1	1	0,668	0,874

I. Turistik talabni rag'batlantirish imkoniyatlari:

1. Ichki turizm rivojlanishini faollashtirish strategiyasi. U ko'p jihatdan aholining aksariyat qismida hozircha yo'q bo'lgan sayohat qilish odatini paydo qilish bilan bog'liq.

2. Shahar va qishloq aholisining daromadlari o'rtasidagi farqni kamaytirish zarurati. U qishloq aholisi orasida sayyohlarning potensial sonini ko'paytiradi.

3. Mintaqalarda bandlikni oshirish imkoniyatlari.

4. Boy tarixiy va madaniy meros to'g'risidagi bilimlarning hozircha yetarli bo'lmagan darajasini oshirishning maqsadga muvofiqligi.

Taklif etiladigan turistik xizmatlar va tutash tarmoqlar mahsulotlari sonini oshirish va sifatini yaxshilashni ta'minlaydigan turistik klasterlarni modernizatsiyalash muammolari va imkoniyatlari:

1. Xizmatlar sifati darajasining xalqaro standartlarga yetarli darajada muvofiq emasligi.

2. Turizm sohasida kadrlar malakasini oshirish zarurati.

3. Yo'l-transport infratuzilmasining rivojlanmaganligi.

3a. Avtoturizmni rivojlantirish uchun kempinglarning mavjud emasligi.

3b. O'zbekistonga aviachiptalar narxining qimmatligi.

4. Mehmonxona sanoatidagi yuqori narxlar.

5. Muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanmaganligi.

6. Sayohatga mo'ljallangan toifadagi mahalliy avtobuslar va boshqa, masalan, karavanning uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni tashkil qilish zarurati.

7. O'zbekistonda sayyohlar tomonidan talab yuqori bo'lgan kiyim-kechak, sport jihozlari (masalan, alpinizm uchun mo'ljallangan asbob-anjomlar), ko'rpa-to'shak, mebel, mehmonxona asbob-uskunalari va boshqa mahsulotlarning har xil turlarini ishlab chiqarishni kengaytirish yoki tashkil qilish (mavjud bo'lmagan taqdirda) imkoniyati;

8. Turmahsulot sifatining yuqori narxlarga mos emasligi

9. Xizmatlar sohasi turlari kesimida statistik ma'lumotlarning yo'qligi. Bu turistik klaster rivojlanishini boshqarishni qiyinlashtiradi.

II. Turizm xizmatlariga talab va taklifning o'sishiga to'sqinlik qiluvchi muammolar:

1. Turizm xizmatlarining potensial xaridorlari va yetkazib beruvchilarining yangi turizm turlari haqida sust xabardorligi.

2. Mintaqalarda turizm sohasi bir tekisda rivojlanmagani.

3. Mintaqaviy turizmning targ'ib va reklama qilinmasligi.

III. Ekologiyaning yomonlashishi va atrof-muhitning ifloslanishi.

IV. Insonlarning ma'naviy rivojlanishiga globallashtirishning ziddiyatli ta'siri.

Agrar va etnografik turizm birlashtirilganda biz turizmning agroetnografik turiga ega bo'lamiz. Mazkur turizm turi qishloq joyda yashash, qishloq mehnatida qatnashish, mahalliy xalqning tarixi, madaniyati va san'ati, urf-odatlar va an'analari, milliy ashula va raqslari bilan tanishish, shuningdek, xalq bayramlari va sayllarida ishtirok etishni nazarda tutadi.

Agroetnografik turizmning qishloq hududlari rivojiga ko'rsatadigan ta'siri:

1. Turistik klaster tarmoqlarida ishlab chiqarishning ortishi;

2. Qishloq aholisining bandlik darajasi oshishi;

3. Aholi daromadlari va turmush darajasining oshishi;

4. Yashash sharoitlarining yaxshilanishiga ta'sir etish;

5. Mintaqaning investitsion jozibadorligi oshishi;

6. Qishloq aholisining o'ziga beradigan bahosi oshishi;

7. Milliy madaniy an'analarni targ'ib va reklama qilish;

8. Kishilarning yangi bilimlarni egallashi va malakasi oshishi;

9. Qishloq va yirik shaharlar aholisining o'zaro muloqoti orqali bir-birini madaniy va ruhiy jihatdan boyitish samarasi;

10. O'zbekistonning qishloq aholisi ko'p bo'lgan hududlari va mintaqalari iqtisodiyoti o'sishining jadallashuvi.

O'zbekiston mintaqalarida turizm sohasini rivojlantirishning navbatdagi ustuvor yo'nalishi karavanningni rivojlantirishdir.

“Karavanning” so'zi inglizcha caravan - furgon, vagoncha so'zidan kelib chiqqan. Karavanning – g'ildiraklar ustiga qurilgan uyda harakatlanish va yashash bilan bog'liq sayohatdir. Bunday sayohat subyektlari karavanerlar deb ataladi.⁶

Kutilayotgan natijalar:

⁶ <http://svastour.ru>

1. Karavanning har xil turdagi turistik sayohatlarni, ya'ni sport turizmi, ekologik turizm, madaniy-o'rganish turizmi, agroturizm, etnografik turizm va boshqalarni rivojlantirishga yordam beradi.

2. Karavanning sayyohlarni joylashtirish vositasi sifatida qo'llanishi mumkin.

3. Karavanning ichki turizm o'sishini rag'batlantiradi.

4. Karavanning mintaqalarda xususiy tadbirkorlikni kengaytirishga va bandlik darajasini oshirishga ko'maklashadi.

5. Karavanning qishloq aholisi turmush darajasi va sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston mintaqalarida turizm sohasini rivojlantirishning uchinchi ustuvor yo'nalishi sifatida biz "Culture house", ya'ni "Madaniyat mehmonxonasi" nomi ostida tematik mehmonxonalarni tashkil qilishni taklif etamiz.

Quyidagi vazifalarni hal etish imkoniyatini beruvchi mazkur innovatsion ilmiy loyihani tatbiq etishdan kutiladigan natijalar:

1. Milliy va chet ellik investorlar uchun O'zbekistonning investitsion jozibadorligi ortishi;

2. Aholi bandligi darajasining oshishi;

3. Mintaqalarda qulay iqtisodiy sharoitlar yaratilishi;

4. Turizmning oziq-ovqat, tibbiy, madaniy, etnografik turlari rivojlanishi;

5. Aholining turmush darajasi va yashash sifati oshishi.

Xulosa va takliflar

Yuqorida bayon qilinganlardan xulosa qilib shuni qayd qilamizki:

O'zbekiston Respublikasi turizm industriyasini rivojlantirish bo'yicha 2025 yilgacha bo'lgan davr uchun prognoz ko'rsatkichlari shakllantirish yuzasidan taqdim etilgan chora-tadbirlar, jumladan, turizm industriyasini jadal rivojlantirishning ustuvor va strategik yo'nalishlari turizm industriyasini rivojlantirish uchun qonunchilik, iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy sharoitlarni yaratish muhimligiga asoslanadi;

o'rta muddatda turistik mahsulotlar turlarini diversifikatsiyalash, xorijiy va ichki investitsiyalarni ko'paytirish, turistik infratuzilmani takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish, mamlakatning xalqaro maydonda turistik mavqegini oshirish hisobiga turizmning rivojlanish omillari turizm industriyasi barcha ko'rsatkichlarining jadal o'sishini ta'minlaydi;

2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi qulay iqtisodiy sharoitlar va omillarni yaratish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini yuksaltirish, turizm sohasini jadal rivojlantirish bo'yicha ustuvor maqsad va vazifalarni belgilash, uning iqtisodiyotdagi o'rni va ulushini oshirish, xizmatlarni diversifikatsiyalash va ularning sifatini oshirish hamda turizm infratuzilmasini takomillashtirishga qaratiladi.

Shunday qilib, taqdim etilgan innovatsion takliflar iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O‘zbekiston mintaqalarida turizm sohasi rivojlanishini jadallashtirishga ko‘maklashadi. Turizm klasterini shakllantirish mamlakat mintaqalarining iqtisodiy o‘sishi uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilib, iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Александрова А.Ю. География туризма. М.: Аспект Пресс, 2002. – С. 6-7.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 2 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4861-сонли фармони// Ўзбекистон Республикаси қонунчилик ҳужжатлари тўплами, 2016, № 49, 558-б, 2017 № 1, 3-б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5611-сонли фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 2 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4861-сонли фармони// Ўзбекистон Республикаси қонунчилик ҳужжатлари тўплами, 2016, № 49, 558-б, 2017 № 1, 3-б.
5. Мухтаров Б. Ozbekiston respublikasida aholi daromadlarini osish dinamikasi //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 579-581.
6. Botir M., Nodirbek X. QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘INING AHOLI DAROMADLARIGA TA‘SIRI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 253-257.
7. Botir M. RAQAMLI IQTISODIYOTGA O‘TISH DAVRIDA YUZAGA KELAYOTGAN MUAMMOLAR //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 257-260.
8. Mukhtorov B., Ermatov M. METHODS OF EFFECTIVE HUMAN RESOURCE MANAGEMENT //International Journal Of Management And Economics Fundamental. – 2023. – Т. 3. – №. 05. – С. 76-80.
9. Мухтаров Б., Хайруллаев Н. Преимущества и недостатки оффшорных зон //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2022. – Т. 1. – №. 1.
10. Цой М. П., Эшонкулов Т., Касимова Д. П. Реформы в сфере образования Республики Узбекистан //Гуманитарные науки в XXI веке. – 2014. – №. 18. – С. 210-213.
11. Муртазин Э. Р., Сиддиков М. Ю., Цой М. П. Стратегия развития экономики Узбекистана-региональные особенности //Региональные проблемы преобразования экономики: интеграционные процессы и механизмы формирования и социально-экономическая политика региона. – 2018. – С. 85-87.
12. Цой М. П., Худояров Р. ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 37-40.

13. ЦОЙ М. РОЛЬ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В ВОПРОСАХ СОКРАЩЕНИЯ БЕДНОСТИ И СОЗДАНИЯ ДОСТОЙНЫХ РАБОЧИХ МЕСТ–МИРОВОЙ ОПЫТ И ПРАКТИКА УЗБЕКИСТАНА //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
14. Цой М. П., Худояров Р. Т. МАЛЫЙ И СРЕДНИЙ БИЗНЕС В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 132-136.
15. Shahzod M. O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 153-156.
16. Mukhtarovich D. K., Mamarajabovich A. K., Schmidt P. Aplikovaná informatika v podnikaní a digitálnom hospodárstve //Economics And Informatics. – 2023. – Т. 21. – №. 1.
17. Khidirnazarov A. PRIORITIES OF STRUCTURAL CHANGES IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 559-561.
18. Xudayarov R., Akhror A. Big data types of education system and opportunities for using them in the field //journal of academic research and trends in educational sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 21-24.
19. To‘ychiyeva N. The main characteristics of innovation management in the higher education system //International conferences. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 103-105.
20. Khudoyarov R. Improving economic governance in a market economy //galaxy international interdisciplinary research journal. – 2022. – Т. 10. – №. 2. – С. 610-612.
21. Xudoyorov R. COMPILATION OF FINANCIAL REPORTS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 175-186.
22. Xudayarov R., Akhror A. Big data types of education system and opportunities for using them in the field //journal of academic research and trends in educational sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 21-24.
23. Усмонова В. ХУДУДЛАРДА ИНВЕСТИЦИЯЛАР САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ //Economics and education. – 2022. – Т. 23. – №. 6. – С. 70-74.
24. Усмонова В. Б. ХУДУДЛАР ТАРАҚҚИЁТИДА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany). – 2022. – С. 139-143.
25. Usmanova V. INCREASING INVESTMENT ATTRACTIVENESS IN THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY //International Journal of Advance Scientific Research. – 2023. – Т. 3. – №. 05. – С. 131-138.
26. Azimov Y. THE METHOD OF DEVELOPING CREATIVE THINKING IN STUDENTS BASED ON THE COMPETENCE APPROACH //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 80-91.
27. Yusufjon A. FIZIKA DARSIDA O ‘QUVCHILARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 368-370.
28. Yusufjon A., Shahzoda U. DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN STUDENTS IN PHYSICS CLASS //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 271-275.

29. Азимов Ю. ЎҚУВЧИЛАРДА КРЕАТИВ ФИКРЛАШНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ: Азимов Юсуфжон, ЎЗМУ Жиззах филиали катта ўқитувчиси //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 7. – С. 302-306.
30. Yusufjon A. DEVELOP CREATIVE THINKING IN STUDENTS BASED ON A COMPETENCY-BASED APPROACH //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2022. – Т. 3. – №. 03. – С. 5-8.
31. Рашидов У., Рашидов А. Роль и значение нотариальных методов в регулировании экономики //Вопросы усиления позиций Узбекистана в международной торговле и оптимизации его интеграции в мировой рынок в условиях глобальной трансформации. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – С. 53-58.
32. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. RESURSLAR YETISHMAYDIGAN HUDUDNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 14. – С. 290-298.
33. Abror R., Hasanboy K., Husanboy K. GLOBAL IQTISODIY MUAMMOLAR, RAQAMLI IQTISODIYOTGA O 'TISHNING AFZALLIKLARI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 169-175.
34. Abror R., Shahobiddin K. INNOVATIVE MARKETING AND ITS DEVELOPMENT //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 193-196.
35. Rashidov A., Leonodovna M. N., Azlarkhan A. The importance of financial accounting in business decision-making //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2023. – Т. 21. – С. 1-4.
36. Sardor B., Ibragimovich T. K. Digital Transformation Directions in the Restaurant Business //INTERNATIONAL JOURNAL OF BUSINESS DIPLOMACY AND ECONOMY. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 1-4.
37. Bo'ltakov S. et al. TURIZM SOHASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI AHAMIYATI //Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 60-62.
38. Raipovna V. S., Akramovich N. A., Sevinch K. PRODUCTION CAPACITY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES AND WAYS TO INCREASE IT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 238-241.
39. Xolmuradovich X. B. et al. THE DEVELOPMENT OF THE SPORTS SYSTEM IN UZBEKISTAN, THE GUARANTEE OF THE HEALTHY AND WELL-ROUNDED YOUTH //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 266-269.
40. Akramovich N. A. et al. IMPACT OF HIDDEN ECONOMY ON SOCIETY IN UZBEKISTAN, WAYS TO REDUCE IT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 142-147.
41. Xolmuradovich X. B. et al. GOVERNMENT AND NON-GOVERNMENT FORMS OF BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP SUPPORT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 258-265.
42. Худояров Р., Низаметдинов А. МАЛЫЙ И СРЕДНИЙ БИЗНЕС В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 6 Part 2. – С. 188-193.

43. Bahrom X. et al. O'ZBEKISTON VA AQSHNING IQTISODIY MUNOSABATLARI //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – C. 63-69.
44. Sarvar G., Sirojiddin S. Pulatova Mashhura Xushnudbek qizi.(2022). Factors affecting labor relations and its wage //Journal of academic research and Trends in Educational Sciences. – T. 1. – №. 12. – C. 125-129.
45. Akramovich N. A., Sarvar G., Yassim H. THE PLACE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 95-99.
46. G'aybullayev S. The place of the digital economy today //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 116-126.
47. G'Aybullayev Sarvar O. et al. O 'zbekistonda iste'mol savatchasi hozirgi holatini va uni shakillantirish yo 'nalishlari //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 119-125.
48. Baxrom X., Alijon N., Aziz Z. THE ROLE OF THE PRIVATE SECTOR IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 130-136.
49. Xaydarov, B., & Saitov, S. (2022). Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va afzalliklari. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollor, 1(1), 634–635. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5390>
50. Bahrom X. et al. O'ZBEKISTON VA AQSHNING IQTISODIY MUNOSABATLARI //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – C. 63-69.
51. Xolmuradovich X. B. RAQAMLI IQTISODIYOTDA BUXGALTERIYA VA AUDITNI O'RNI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – C. 128-131.
52. Sirojiddin S., Azizbek A. TRANSITION TO THE MARKET ECONOMY AND ITS CHARACTERISTICS IN UZBEKISTAN //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 255-258.
53. O'G'Li N. D. R., Qizi T. D. Z. MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA UNGA OID YANGI YONDASHUVLAR //Journal of marketing, business and management. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 1-4.
54. Najmiddinov D. R., Shodlikov D. E. THE EFFECT OF THE SECRET ECONOMY IN A DAILY LIFE OF THE SOCIETY //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1A. – C. 56-59.
55. Dilshod N. XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA KORXONALARDA TUSHUMLAR AUDITINI TASHKIL QILISH BOSQICHLARI VA DASTAKLARINI TAKOMILLASHTIRISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – C. 105-110.
56. Uchkun S., Dilshod N. PROCESS OF IDENTIFYING THE SIGNIFICANT ACCOUNTS IN THE REVENUE CYCLE //Journal of marketing, business and management. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 32-36.
57. Нажмиддинов Д., Абдурахимов М. Yashirin iqtisodiyotning jamiyatga ta'siri //Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 193-196.

58. Alijon N., Sirojiddin S., Azizbek A. FRANCHISE SYSTEM IN BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 250-257.
59. Sarvar G. et al. FACTORS AFFECTING LABOR RELATIONS AND ITS WAGE //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 125-129.
60. Sirojiddin S. et al. SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IS A PLACE TO PROVIDE EMPLOYMENT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 115-119.
61. Саитов С., Хонкелов Я. Raqamli iqtisodiyotning bugungi kundagi o‘rni //Новый Узбекистан: успешный международный опыт внедрения международных стандартов финансовой отчетности. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 301-304.
62. Sirojiddin S. et al. PRICE AND ITS ROLE IN ENSURING THE STABILITY OF PRODUCTS AND RAW MATERIALS IN SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 357-365.
63. Соловарова М. А. ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СЕТИ ОТЕЛЕЙ MARRIOTT //Казанский вестник молодых учёных. – 2022. – Т. 6. – №. 3. – С. 98-103.
64. Norkuziyev A. R. Theoretical Analysis Of Role Infrastructure On The Development Smes In Uzbekistan //International Conference Dedicated To The Role And Importance Of Innovative Education In The 21st Century. – 2022. – Т. 1. – №. 9. – С. 131-135.
65. Rustamovich N. A. O ‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA ICHKI RESURSLARGA ASOSLANGAN HUDUDIY INFRATUZILMASIDAN FOYDALANISH IMKOMIYATLARI VA MAMLAKATIMIZDA INNAVATSION USULDA FOYDALANISH //O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 104-115.
66. Наркузиёв А. Р. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЯ ИНФРАСТРУКТУРЫ КАК ЭКОНОМИЧЕСКОЙ КАТЕГОРИИ И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ В СФЕРЕ ПРОИЗВОДСТВА //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 11-14.
67. Rustamovich N. A. ROLE OF INFRASTRUCTURE TO DEVELOP SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP ACTIVITIES IN UZBEKISTAN //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 9. – С. 412-416.
68. Narkuziyev A. R. ICHKI RESURSLARGA ASOSLANGAN HUDUDIY INFRATUZILMANI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASINI QO ‘LLASH (O ‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SOHASI UCHUN FOYDALANISH IMKOMIYATLARI) //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. TSTU Conference 2. – С. 390-400.
69. Kamolov D. Davlat boshqaruviga oid axloqiy qarashlar //Адабиёт учкунлари. – 2021.
70. Kamolov Dostonbek, “SPIRITUAL AND MORAL ENVIRONMENT OF SOCIETY”, *SSAI*, vol. 1, no. 2, pp. 128–133, Oct. 2023, Accessed: Oct. 29, 2023. [Online]. Available: <https://supportresult.uz/index.php/ssai/article/view/89>
71. Kamolov, D. R. O. G. L. (2022). O'zbekistonda demokratiya va axloqning zamonaviy muammolari va yechimlari. Academic research in educational sciences, 3(NUU Conference 2), 348-352.